



BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINING KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISH

Jo'rayeva Turg'unoy Umarjonovna

Namangan davlat universiteti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7710412>

ARTICLE INFO

Received: 26th February 2023

Accepted: 06th March 2023

Online: 08th March 2023

KEY WORDS

Muloqot, ta'lim, tarbiya,
o'quvchi, kommunikativ,
kompetensiya, layoqat,
individual, zamonaviy
yondashuv, ta'lim sifati,
musobaqalashmoq,
raqobatlashmoq, bellashmoq,
samaradorlik, tushunuvchanlik,
moslashuvchanlik, yutuqlilik,
muvaffaqiyatlilik, natijalilik,
xususiyat, sifat.

ABSTRACT

Ushbu maqolada boshlang'ich sinif o'quvchilaridagi kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish haqida fikrlar yuritilgan. Shu bilan birga kommunikativ kompetensiyani rivojlanishida muloqotning o'рни va ahamiyati, o'ziga xos xususiyatlari va kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish uchun tavsiyalar berilgan.

Xalq ta'limi tizimida olib borilayotgan islohotlar zamirida yosh avlodni komil inson qilib tarbiyalash eng asosiy masalaga aylangan. Jumladan, 2017-yil 6-aprelda 187-sonli qaror bilan yangi DTS qabul qilindi, 2020-yil 23-sentabrda 637-sonli qaror asossida "Ta'lim tog'risidagi qonun" qabul qilindi. Shu bilan birga 2021-o'quv yilida ta'lim jarayoniga tadbiiq etilgan "Milliy o'quv dasturi"ni keng ko'lamli islohotlarning biri deb ayta olamiz.

Mamlakatimiz tayanchi bo'lgan yosh avlodni har tomonlama bilimli va intellektual salohiyatga ega, o'zining g'oyalari bilan dadil harakat qilishga undaydigan ta'lim dasturlari, bugungi pedagog xodimlarning diqqat markazida turibdi. Bugungi kundagi har bir yangilik, shubhasiz, o'qituvchilarni qiziqtiradi va ularni o'z ustida yanada ko'proq ishlashga, o'z fanini puxta o'rganishga undaydi. Avvalgi o'quv dasturlari mazmuni 90 foiz nazariyadan iborat bo'lib, o'qitish metodikasi yodlatishga yo'naltirilgan bo'lsa, yangi Milliy o'quv dasturining mazmuni esa 50 foiz nazariya, 50 foiz amaliyotdan iborat bo'lib, o'quvchining mustaqil faoliyatini qo'llab-quvvatlashga qaratilgandir.

O'quv dasturlarida baholash jarayoni faqat eslab qolgan bilimlar hajmini aniqlagan. Yangi dastur asosida esa o'quvchilarda shakllangan ko'nikmalar baholanadi. Fanlar soni va o'quv yuklamalari optimallashtirilib, o'quvchilarning yoshi, qiziqishiga ko'ra mavzular ham



qayta ishlandi. Maqsad esa o'quvchilarni hayotga va kasbiy faoliyatga tayyorlash, shu bilan birga bilim, ko'nikma va malakalarga ega bo'lishidir.

Milliy o'quv dasturi asosidagi fanlar chiziqli tartibda emas, spiralsimon tarzda o'qitiladi. Ya'ni mavzular takroriy emas, bir-birini mantiqan davom ettiradi hamda soddadan murakkabga tomon yo'naltirilgan tarzda kiritilgan.

Milliy o'quv dasturlari 2020-2021-o'quv yilining IV choragida Toshkent viloyatidagi umumta'lim maktablarining 1-2-sinflari uchun joriy etildi. Yangi 2021-2022-o'quv yilidan esa respublikamizning barcha hududlarida 1-2-sinf o'quvchilari uchun amaliyotga tatbiq etildi. 2026-2027-o'quv yiliga qadar umumta'lim maktablarining barcha sinflari to'liq Milliy o'quv dasturiga o'tishi rejalashtirilgan.

Ta'lim jarayoniga kirib kelayotgan bu kabi o'zgarishlarning negizida yoshlarimizni har tomonlama yetuk shaxs etib tarbiyalash ko'zda tutilgan. Bu maqsadlarni amalga oshirish uchun esa ta'lim-tarbiya jarayoniga alohida e'tibor qaratish joizdir. Yuqorida keltirib o'tilgan qarorga ko'ra umumiy o'rta ta'limdagi har bir fan tarkibiga va barcha fanlar uchun umumiy bo'lgan kompetensiyalar ta'lim jarayoniga tatbiq etildi. Fanlarimiz uchun 6 ta tayanch kompetensiya asos qilib olindi. Ular:

1. Kommunikativ kompetensiya.
2. Axborotlar bilan ishlash kompetensiya.
3. O'z-o'zini rivojlantirish kompetensiya.
4. Ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiya.
5. Milliy va umummadaniy kompetensiya.
6. Matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo'lish hamda foydalanish kompetensiya.

Kompetensiya so'zining mazmun-mohiyatiga e'tibor qaratadigan bo'lsak, bu so'z inglizcha "competence" so'zi "to compete" so'zidan kelib chiqqan bo'lib, "musobaqalashmoq", "raqobatlashmoq", "bellashmoq" degan ma'noni bildiradi. So'zma-so'z tarjima qilinsa "musobaqalashishga layoqatlilik" ma'nosida keladi.

Ilmiy pedagogik va psixologik manbalarda keltirilishicha, kopetensiya, kompetentlik o'ta murakkab, juda ko'p qismli, ko'pgina fanlar uchun mushtarak bo'lgan tushunchalardir. Shu boisdan uning talqinlari ham hajman, ham tarkibiga ko'ra, ham ma'no, mantiq mundarijasi jihatidan turli-tumandir.

Atamaning mohiyati shuningdek, "samaradorlik", "moslashuvchanlik", "yutuqlilik", "muvaffaqiyatlilik", "tushunuvchanlik", "natijalilik", "uquvlilik", "xossa", "xususiyat", "sifat", "miqdor" kabi tushunchalar asosida ham tavsiflanmoqda.

Ta'lim jarayonida kompetensiyaviy yondashuvning vujudga kelishi tarixiga oid materiallarni tahlil qilinsa, uning rivojlanish tarixini shartli ravishda to'rtta davrga bo'lish mumkin.

Birinchi bosqich (1960-1970- yillar) Bu davrda ilk bor "kompetensiya" va "kompetentlik" so'zlari ilmiy adabiyotlarga kirib kela boshladi. Shu davrdan boshlab til o'rganish nazariyasi yo'nalishida til kompetensiyasi turlariga tegishli tadqiqotlar boshlanib D.Xayms tomonidan, "kommunikativ kompetentlik" tushunchasi kiritildi.

Ikkinchi bosqich (1970- 1990-yillar). Bu davrda tilni o'rganish (ayniqsa o'z ona tilisi bo'lmagan) nazariyasi va amaliyotida, boshqarishda kasbiy mahorat, rahbarlik qilishda,



menejmentda, muloqot qilishni o'rganishda kompetensiya/kompetentlik kategoriyalari ishlatila boshlandi. "Ijtimoiy kompetensiya/kompetentlik" tushunchalarining mazmuni ishlab chiqila boshlandi. Bu davr shunisi bilan ahamiyatli kompetentlikning turli ko'rinishlarida "tayyor bo'lmoq", "layoqat" kategoriyalarining taqdim etilishi, shuningdek, "javobgarlik", "ishonch bilan" kabi psixologik sifatlarni qayd qilinishi e'tiborni jalb qiladi.

J.Ravenning 1984-yilda chop etilgan "Zamonaviy jamiyatda kompetentlik" nomli asarida kompetentlikka keng ta'rif beriladi. Bu shunday hodisaki, "u juda ko'p miqdordagi komponentlardan tashkil topgan bo'lib, ulardan ko'pchiligi bir-biriga nisbatan mustaqildir..., ayrim komponentalar ko'proq kognitiv sohaga tegishlidir, boshqalari -emotsional sohaga tegishli. Bu komponentalar o'z-o'zini samarali boshqarishda bir-birini to'ldirishi mumkin" deydi.

21 asr uchun ta'lim bo'yicha xalqaro komissiyada Jak Delorning "Ta'lim: yashirin xazina" nomli ma'ruzasida "ta'lim tayanadigan to'rtta ustunni ta'riflab beradi: - bu bilishni o'rganish, bajarishni o'rganish, birgalikda yashashni o'rganish, yashashni o'rganish". Bu bilan global kompetentlikning asosiy mazmunini ochib beradi. Jak Delorf fikriga ko'ra, bajarishni o'rganish deyilganda, nafaqat kasbiy malakaga ega bo'lish, balki keng ma'noda competent bo'lish nazarda tutiladiki guruhlarda ishlay olish va ish paytida yuzaga keladigan juda ko'p murakkab vaziyatlardan muvaffaqiyatli chiqib keta olsin.

Uchinchi bosqich 1990- yillardan boshlanadi. Bu davrda kompetentlikni ilmiy kategoriya sifatida ta'limda nisbatan qo'llash bo'yicha tadqiqot ishlari bajarildi. A.K.Markovanning (1993-1996) ishlarida mehnat psixologiyasi kontekstida kasbiy kompetentlik maxsus predmet sifatida har tomonlama qaraladi.

To'rtinch bosqich kompetensiyaviy yondashuvni kasbiy ta'lim, umumta'lim fanlari standartlari mazmuniga kiritish bilan bog'langandir. 2006-yil 18-dekabrda Yevropa parlamenti va Kengashi uzluksiz ta'lim uchun quyidagi tayanch kompetentsiyalarni tavsiya qildi.

- O'z ona tilida muloqot qila olish;
- Chet tilida muloqot qila olish;
- Matematik kompetentlik hamda fan va texnika sohasidagi asosiy kompetensiyalar;
- Raqamli kompetensiyalar;
- O'qishni o'rganish;
- Ijtimoiy va fuqarolik kompetensiyasi;
- Tadbirkorlik va tashabbuskorlik tuyg'usi;
- Madaniyatdan xabardor bo'lish va uni ifodalash.

Ta'limda kompetensiyaviy yondashuvning vujudga kelish tarixi shartli ravishda to'rt bosqichni o'z ichiga olishi va bu bosqichlarda qanday ishlar amalga oshirilganligi haqida yuqorida to'xtalib o'tdik. Fanlarimiz uchun asos qilib olingan 6 ta tayanch kompetensiyaning biri esa kommunikativ kompetensiya biz ta'riflagan kommunikativ qobiliyatlarga to'la mos keladi. Kommunikativ kompetensiya-ijtimoiy vaziyatlarda eng avvalo ona tili qoidalari asosida hamda birorta xorijiy tilda o'zaro samarali muloqotga kirisha olish, muloqotda muomala madaniyatiga amal qilish, ijtimoiy moslashuvchanlik, hamkorlikda jamoada samarali ishlay olish layoqatini nazarda tutadi. O'quvchi yoshlarimizdagi kommunikativ kompetensiyani qanday qilib rivojlantirishimiz mumkin? degan savol oldimizda turgan va hal



etishimiz juda muhim bo'lgan masaladir. Avvalo bu muammoning yuzaga kelish sabablarini aniqlab olaylik. Bunga birgina omil emas balki bir-biriga bog'langan juda ko'p sabablar bo'ladi. Kommunikativ kompetensiyani yuzaga kelishi, uni rivojlanishiga quyidagi omillar to'sqinlik qiladi:

- Farzand uchun kam vaqt ajratish.
- Bolaning savollariga to'liq javob bermaslik.
- Ota-onaning bola bilan kam muloqotga kirishishi.
- Bolaning fikrlarini oxirigacha tinglamaslik.
- Bolaning qiziqishlari va qobiliyatini hisobga olmaslik.
- Ijtimoiy muhit.
- Bola psixologiyasida yuzaga kelgan kamchiliklarni vaqtida bartaraf etmaslik.
- Bolaning mustaqilligiga to'sqinlik qilish.
- Atrofdagi insonlarning e'tiborsizligi.
- Tarbiyasida qisman uzulish sodir bo'lishi.
- Ta'lim va tarbiyaning uyg'unlashmaganligi. [3]

Shunga o'xshash ko'plab omillar ta'sir ko'rsatishi mumkin. Bu misollarning barchasi birgalikda yuzaga kelmaydi, aksincha bir bolani hayotida bitta omilning chuqur iz qoldirishi natijasida ham sodir bo'lishi mumkin. Yuqorida sanab o'tilgan holatlatlarni o'z vaqtida bartaraf etmasak farzandlarimiz fe'l-atvorida tortinchoqlik, odamovilik, muloqotga kirisha olmaslik, injiqlik, mustaqil fikrday olmaslik, kamgaplik kabi salbiy sifatlar shakllanib qolishi, shu bilan birga bolaning ruhiyatiga singib qolishi mumkin. Kamgap deganda biz o'z fikrini bildirishdan qochadigan, faol muloqot jarayonidan o'zini tortadigan o'quvchilarni nazarda tutmoqdamiz.

Buyuk fransuz yozuvchisi Antuan Sent Ekzyuperi " Muloqot- shunday ne'matki, u orqali inson lazzatlanadi" deb yozgan edi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirish bugungi kunga kelib o'qituvchilar oldidagi dolzarb masalalardan biri bo'lib qolmoqda. Bugungi ta'limning asosiy shartlaridan biri ham o'quvchilarda uchraydigan kommunikativ kompetensiyaga to'sqinlik qiluvchi omillarning mavjudligidadir. Biz o'qituvchilar ularni to'g'ri tushungan holda darslarda o'quvchi mustaqilligini ta'minlash, ularda uchraydigan xatolar va ularni bartaraf etishga doimo diqqatni qaratmog'imiz kerak bo'ladi. Yangi tahrirdagi DTS, o'quv dasturlari va darsliklarni takomillashtirish jarayoni ketayotgan bir paytda har bir boshlang'ich sinf o'qituvchisidan zamon bilan hamnafas yashash talab etilmoqda. Chunki yosh avlodni har tomonlama yetuk shaxs qilib tarbiyalashda ularning o'rni juda yuqori hisoblanadi. Bugungi kunga kelib bu masala davlat siyosati darajasiga ko'tarildi.

Shuni unutmasligimiz kerakki, kelajagimiz poydevori bilim dargohlarida yaratiladi, boshqacha aytganda, xalqimizning ertangi kuni qanday bo'lishi farzandlarining bugungi qanday ta'lim va tarbiya olishiga bog'liq. Buning uchun har qaysi ota – ona, ustoz va murabbiy har bir bola timsolida avvalo komil inson shaxsini ko'rishi zarur. Ana shu oddiy talabdan kelib chiqqan holda, farzandlarimizni mustaqil va keng fikrlash qobiliyatiga ega bo'lgan ongli yashaydigan komil insonlar etib voyaga yetkazish – ta'lim – tarbiya sohasining asosiy maqsadi va vazifasi bo'lishi lozim, deb qabul qilishimiz kerak. Bu esa ta'lim – tarbiya ishini uyg'un holda olib borishni talab etadi.



Boshlang'ich sinf ta'lim tizimining asosiy va muhim qismi hisoblanadi. Bu bosqichda bolani komillik sari yetaklashning dastlabki ishlari amalga oshiriladi. Shuning uchun ham bu bosqichga alohida e'tibor berish bugungi kunning asosiy masalasi deb qaralmoqda.

Hozirgi kunda ta'lim tizimida, jumladan, boshlang'ich sinf o'quvchilarini kommunikativ kompetensiyasini shakllantirishning nazariy hamda amaliy asoslarini yaratishga bag'ishlangan ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmoqda.

Umumiy o'rta ta'lim maktablarining boshlang'ich sinflarida darslarni o'qitishning zamonaviy pedagogik usullaridan foydalanish va axborot texnologiyalarni ta'lim jarayoniga to'la joriy etish, dars jarayonlariga kompetensiyaviy yondashish, ulardan samarali foydalanish ta'lim samaradorligini o'sishiga olib keladi.

References:

1. <https://lex.uz/uz/docs/-5848414>
2. G'oziev E.G. Umumiy psixologiya. Toshkent. 2002.1-2 kitob
3. Rubinshtein S. L. Umumiy psixologiya asoslari - Sankt-Peterburg: "Piter" nashriyoti, 2000. - 712 p.
4. Shadrikov V.D. Psixologiyaga kirish: inson qobiliyatlari / V.D. Shadrikov. - M.: Logos, 2002
5. Bodalev A.A. Muloqot psixologiyasi. Ensiklopedik lug'at Jami. ed. A.A. Bodaleva. - M. "Kogito-markaz" nashriyoti, 2011 yil
6. Dubrovina I.V., Danilova E.E., Prixojan A.M. Psixologiya / Ed. I. V. Dubrovin. - M.:AKADEMA, 2003
7. Rasulov R., Mo'yidinov Q. Nutq madaniyati va madaniyati san'ati. O'quv qo'llanma. -T., 2010. 28-30-b.
8. Jo'rayev B.O. Bola- olam bezagi. Pedagoglar uchun uslubiy qo'llanma. Namangan 2017y 7-betlar.
9. <https://donschool86.ru>. Pedagogik jarayonda kommunikativ madaniyat. O'qituvchining kommunikativ madaniyatining xususiyatlari, 3-8-betlar.
10. <https://lex.uz/uz/docs/-5848414>
11. <https://saarj.com/academicia-current-issue/>
12. Asian Journal of Multidimensional Research ISSN: 2278-4853 Vol. 11, Issue 5, May 2022 SJIF 2022 = 8.179 A peer reviewed journal 249-251 DOI: 10.5958/2278-4853.2022.00116.1 DEVELOPING COMMUNICATIVE COMPETENCE IN PRIMARY SCHOOL STUDENTS